

### XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**Ish haqi.** 2022- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



**Ta'linda** 63 550 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 45,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 384,9 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga o'sdi.



**Sanoatda** 19 504 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi – 14,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 226,1 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga ko'paydi;



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** 24 524 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,6 %) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 467,3 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,7 % ga o'sdi;



**Tashish va saqlashda** 3 940 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 % ) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 409,0 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 62,1 % ga o'sdi;



**Moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 2 329 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 % ) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 911,4 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 21,5 % ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2022- yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 902,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga o'sishi kuzatildi.



### **Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni**

*(2022-yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik  
subyektlaridan tashqari)*

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>		<i>O’sish sur’ati %</i>	<i>ulushi</i>
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>		
<b>Xorazm viloyati – jami:</b>	<b>130 607</b>	<b>139 501</b>	<b>106,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	16 732	19 504	116,6	14,0
Qurilish	1 391	1 424	102,4	1,0
Savdo	1 889	1 296	68,6	0,9
Tashish va saqlash	2 671	3 940	147,5	2,8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	66	69	104,5	0,01
Axborot va aloqa	778	791	101,7	0,6
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2 426	2 329	96,0	1,7
Ta’lim	61 296	63 550	103,7	45,6
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	24 032	24 524	102,0	17,6
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1 974	1 855	94,0	1,3
Boshqa faoliyat turlari	17 352	20 219	116,5	14,5

**Sohalar kesimida ish haqi fondi va  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- iyun)</i>		<i>O‘sish sur’ati, %</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2 902,1</i>	
<b>Xorazm viloyati - jami:</b>	<b>2 428,1</b>	<b>2 902,1</b>	<b>119,5</b>


*shu jumladan:*

Sanoat	2 864,3	3 226,1	112,6
Qurilish	2 767,9	2 746,2	99,2
Savdo	2 146,0	2 216,8	103,3
Tashish va saqlash	3 954,5	6 409,0	162,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 503,5	1 755,0	116,7
Axborot va aloqa	2 791,4	3 717,1	133,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	6 510,0	7 911,4	121,5
Ta’lim	2 075,9	2 384,9	114,9
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2 078,2	2 467,3	118,7
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1 850,2	2 143,1	115,8
Boshqa faoliyat turlari	2 638,0	3 198,2	121,2

2022- yil yanvar-iyun oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati tashish va saqlash faoliyatida 62,1 %, axborot va aloqada – 33,2 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 21,5 %, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 18,7 %, yashash va ovqatlanish xizmatida – 16,7 %, san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda -15,8 % va ta’limda – 14,9 % darajada kuzatildi.


## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati

(2022-yil yanvar-iyunda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 3 834,8 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,1 %), Tuproqqa'l'a tumanida 3 823,1 ming so‘mni (131,7 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 156,5 ming so‘mni (74,3 %), Hazorasp tumanida 2 238,6 ming so‘mni (77,1 %), Gurlan tumanida 2 277,3 ming so‘mni (78,5 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2022- yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)**



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2022- yilning 1- iyundan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 000,0 so'mni tashkil etadi.



**Ta’lim faoliyatı bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

	<i>2022- yil yanvar-iyun oylarida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 384,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	3 206,8	134,5
Xiva	2 298,1	96,4
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	2 211,8	92,7
Gurlan	2 097,2	87,9
Qo‘siko‘pir	2 032,9	85,2
Urganch	2 212,9	92,8
Hazorasp	2 197,6	92,1
Tuproqqał'a	2 110,9	88,5
Xonqa	2 378,7	99,7
Xiva	2 301,6	96,5
Shovot	2 155,4	90,4
Yangiariq	2 690,4	112,8
Yangibozor	1 985,1	83,2

**Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

